

**A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi  
metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutining 2023-yil rejasiga asosan  
2023-yil II chorakda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida  
HISOBOT**

***I. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga kiritiladigan masalalar***

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi  
“Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda  
uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi  
PQ-4963-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosi to‘g‘risida*

Finlandiya davlat ta’lim tizimi bilan yaqindan tanishish, maktab boshqaruv sohasida direktorlarni lavozimga tayinlash, ularni malakasini oshirish, maktab boshqaruvida medianing rolini aniqlash, maktablarda marketing qanday olib borilishini o‘rganish, **STEAM** fanlarini o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha fin maktablari tajribasi hamda maktablar, o‘qituvchilar va o‘quvchilarni baholash tizimlarini o‘rganish maqsadida joriy yilning 15-19-yanvar kunlari Finlandiya davlatida institutning (*R.Axmedov-Xalqaro bo‘lim boshlig‘i, S.Odilova-Kashunarga yo‘naltirish yetakchi ilmiy xodimi, Q.Karimberdiyev-mustaqil tadqiqotchi, M.Xidirova-1-bosqich tayanch doktoranti, N.Maxammadjanova-1-bosqich tayanch doktoranti*) 5 nafar yosh olimlari ilmiy stajirovka dasturini o‘tab keldi.

Tadqiqotchilar tomonidan Finlandiya davlati ta’lim tizimi, maktab boshqaruv sohasida direktorlarni lavozimga tayinlash, ularni malakasini oshirish, maktab boshqaruvida medianing rolini aniqlash va maktablarda marketing, shuningdek, **STEAM** fanlarini o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha fin maktablari tajribasi hamda maktablar, o‘qituvchilar va o‘quvchilarni baholash tizimlari o‘rganildi.

Stajirovka davomida Muurameddagi tadbirkorlikka ixtisoslashtirilgan yuqori maktabi, Yuvaskila shahrida joylashgan Kuokkalan umumta’lim maktabi, Valteri maxsus ta’limga ehtiyojmand bolalar maktabi, Gradia konsortiumiga kiruvchi yuqori maktab, Jyvaskyladagi Keljonkanjas o‘rta maktabi, Finlandiya Akademiyasi, Finlandiya ta’limni baholash markaziga tashrif buyurilgan.

Xalq ta’limi vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021-yil 26-maydagi 45-q/q va 3-q/q qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan **“A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot institutining 2021-2030-yillarda rivojlantirish Konsepsiyasi”**

hamda Xalqaro tendensiyalar va ilmiy izlanishlar bilan muvofiqlikni ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'limning dolzarb muammolari yuzasidan tizimli asosda ilmiy-tadqiqot dasturlari loyihalarini amalga oshirish bo'yicha – **8 ta yo'nalishlar** asosida **25 ta** ustuvor ilmiy-tadqiqot vazifalari ishlab chiqildi. **Jumladan**, boshlang'ich ta'lim – **4 ta**, umumiy o'rta ta'lim – **9 ta**, kasbga yo'naltirish – **2 ta**, maktabdan tashqari – **2 ta**, qayta tayyorlash va malaka oshirish – **4 ta**, ta'lim sifati va xalqaro baholash – **1 ta**, xalq ta'limi statistikasi – **1 ta** yo'nalish.

Ustuvor vazifalar doirasida joriy yilning birinchi yarim yilligida **quyidagi ishlar amalga oshirildi:**

Hududiy markazlarda tabiiy fanlarning zamonaviy **STEAM** laboratoriyalarini tashkil etish va jihozlash vazifasini sifatli bajarish maqsadida institutning 2021-yil 1-martda tasdiqlangan 01-06-sonli chora-tadbirlar rejasiga binoan **STEAM** laboratoriyalari tashkil etilmoqda. Jumladan,

**Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm** viloyatlari **PYMO'MM**da tabiiy fanlarning zamonaviy **STEAM** laboratoriyalari tashkil etildi. **Andijon, Toshkent viloyatlari** va **Toshkent shahar PYMO'MM**da **STEAM** laboratoriyalarini bosqichma-bosqich tashkil etish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasining "Boshqaruvning zamonaviy usullari" maxsus kursida malaka oshirish belgilangan bo'lib, hozirgi kunga qadar **Samarqand, Sirdaryo, Andijon** va **Jizzax viloyatlari** Pedagogika markazlari **direktorlari** va **o'rinbosarlari** malaka oshirib, tegishli sertifikatga ega bo'ldilar.

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning soni 2023-yil 1-iyul holatiga **jami 489 nafarni, shundan, 134 nafari o'qituvchilar, 203 nafari katta o'qituvchilar, 140 nafari fan nomzodlari (PhD) va 14 nafari fan doktorlari (DSc)** bo'lib, ilmiy salohiyat **31,5 %ni** tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-sonli qarori hamda Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 236-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida 2023-yilning 13-fevralidan rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlar uchun **8 ta kompetensiya** bo'yicha "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish kurslari boshlandi.

**2023-yil 1-iyul** holatiga platforma orqali respublikadagi **jami 10 688 ta** ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan **573 643 nafar rahbar, pedagog va**

**mutaxassis xodimlar**, shundan **10793 nafari** ta'lim muassasalari direktorlari va **505 043 nafar** pedagog o'qituvchilar ro'yxatdan o'tgan.

Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 390-sonli buyrug'iga binoan joriy yilda **500 413 nafar** rahbar va pedagog xodimlar uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslariga Pedagogika markazlarida **269 101 nafar**, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali **143 197 nafar**, oliy ta'lim muassasalari va nodavlat ta'lim tashkilotlarida **88 115 nafar** jalb etilishi rejalashtirilgan. Xususan, joriy yilning **1-iyul** holati bo'yicha Pedagogika markazlarida **146 499 nafar**, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali **124 431 nafar** hamda oliy ta'lim muassasalari va nodavlat ta'lim tashkilotlarida **1 025 nafar** xodimlar malakasini oshirgan. **Umumiy reja 54,4%** bajarilgan.

"Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasidan 2023-yil 1-iyul holatiga **10 793 nafar** umumta'lim maktablar rahbarlaridan **3 563 nafari** (reja bajarilishi **33%**), shuningdek, **505 043 nafar** umumta'lim maktablar pedagog xodimlari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan **234 628 nafari** (**46,5%**) kurslarni muvaffaqiyatli tamomlab, tegishli sertifikatga ega bo'ldi.

Direktor va o'qituvchilar faoliyatiga doir muhim sanalgan kompetensiyalar bo'yicha diagnostika va o'zlashtirish natijalariga ko'ra tahlillari o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari mos ravishda **34,1%** va **33,5%** ortgan.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida muqobil malaka oshirish shakllarining ro'yxati qayta ishlab chiqilib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga tasdiqlash uchun yuborildi.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-290-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosi to'g'risida*

Institutga ishga qabul qilish Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishib tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo'linmalar, tizimdagi tashkilotlar va muassasalarda vakant lavozimlarga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazishda tanlov asosida saralab olish tartibi"ga asosan amalga oshirilmoqda. Institutda **jami shtatlar 138 ta**, shundan **band shtatlar 114 ta**, **vakant shtatlar 22 tani** tashkil etmoqda.

Xususan, yanvar-iyun oylarida vakant lavozimlarga ishga qabul qilish tanlov komissiyasi tomonidan o'tkazilgan jami **3 ta** tanlovda **1 nafar** Toshkent shahar

Pedagoglarni yangi metodiklarga o'rgatish milliy markazi o'quv metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari bilan mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etildi.

Bundan tashqari, vakant lavozimlarga **1 nafar** Farg'ona viloyati Pedagoglarni yangi metodiklarga o'rgatish milliy markazi o'quv metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, **7 nafar** uslubchi (*Hududlar bilan ishlash bo'limi, Monitoring bo'limi, o'quv jarayonini tashkil etish bo'limi*), **2 nafar** bosh mutaxassis (*Doktorantura va magistratura bo'limi, "Xalq ta'limi xodimlarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash markazi"*), **1 nafar** yetakchi mutaxassis (*Xalqaro bo'lim*), **1 nafar** yetakchi ilmiy xodim (*Kasb-hunarga yo'naltirish metodologiyasi ilmiy-tadqiqot bo'limi*), rektor yordamchisi, **1 nafar** 1-toifali mutaxassis, **1 nafar** ofis menejeri (*Ilmiy va pedagogik xizmatlar markazi*), **1 nafar** turar joy mudiri (*Xo'jalik ishlari bo'limi*) **jami 16 nafar** xodim ishga qabul qilindi.

Shuningdek, Ilmiy va pedagogik xizmatlar markazida yo'nalishlar bo'yicha tashkil etiladigan qayta tayyorlash kurslariga **85 nafar** o'qituvchi-pedagoglar bilan soatbay dars mashg'ulotlarini olib borish bo'yicha shartnomalar tuzildi.

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida tashkil etilgan xalq ta'limi xodimlarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash markazida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 15-maydagi "**Menejerlik o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risida**"gi **124-sonli** buyrug'i asosida 2023-yilning **5-iyunidan 27-iyungacha tajriba-sinov** tariqasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar uchun **menejerlik o'quv kurslari** tashkil etildi.

Kurslarga hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarining tavsiyasi asosida **56 nafar** nomzodlar qabul qilingan bo'lib, **6 nafar** nomzod uzrli sabablarsiz kelmaganligi uchun kurs safidan chiqarildi.

Kurs mashg'ulotlari **treninglariga 20 nafar trenerlar** va **15 nafar tajribali maktab direktorlari** jalb etildi.

*Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 29-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 21-sonli buyrug'i ijrosi*

"Axborot resurs-markazi" tomonidan umumta'lim maktab direktorlari uchun adabiyotlar ro'yxati kasbiy rivojlantirish o'quv kurslarining rejalari asosida **8 ta** kompetensiya bo'yicha shakllantirilgan. Unga ko'ra, **jami 231 ta** adabiyotlar: **115 ta** me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning **2 ta** asarlari hamda **104 ta** mutaxassislikka oid adabiyotlardan tashkil topgan **adabiyotlar ro'yxati elektron platformaga** joylashtirildi. Shuningdek, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'zbek

(lotin va kiril), qoraqalpoq va rus tillarida **1790 dona** kitob foydalanish uchun qabul qilindi.

Hududiy markazlar faoliyatini o'rganish maqsadida institut rektorining buyrug'iga asosan tashkil etilgan ishchi guruh joriy yilning **1-3-fevral kunlari Jizzax viloyati PYMO'MM**, shuningdek, **8-9-fevralida Toshkent viloyati PYMO'MM** faoliyati o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishdagi faoliyati, malaka oshirish kurslari uchun yaratilgan metodik ta'minot, dars jarayoni, tinglovchilarning davomati, me'yoriy hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish bo'yicha **tezkor o'rganildi** hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha **takliflar** va **metodik yordam** ko'rsatildi.

2023-yilda pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslarini tashkil etish bo'yicha **"Uzluksiz kasbiy rivojlantirish – 2022"** loyihasi doirasida **24 ta** yo'nalish bo'yicha variativ kontent materiallari (**1098 ta ma'ruza, 1098 ta taqdimot, 1098 ta videodars, 5210 ta adabiyotlar, 10680 ta test topshiriqlar**) yaratildi va "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasiga joylashtirildi.

Joylashtirilgan **24 ta** yo'nalish bo'yicha 2023-yil yanvar oyida tajriba-sinov tariqasida yaratilgan kontent materiallarini ekspertizadan o'tkazish maqsadida Pedagogika markazlarining **170 nafar** professor-o'qituvchilari onlayn malaka oshirishga jalb etilib, o'rnatilgan tartibda sertifikatlar olishdi hamda o'z xulosa va takliflarini berishdi. Institut bilan Pedagogika markazlari hamkorlikda **20 ta** yo'nalish bo'yicha kontent materiallari ishlab chiqish rejalashtirilgan bo'lib, joriy yilning yarim yili davomida **3 ta** yo'nalish bo'yicha kontent materiallari platformaga to'liq joylashtirildi.

*Institutga yuqori tashkilotlar hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligidan kelib tushgan topshiriqlar ijrosi to'g'risida*

Institutga joriy yilning II choragida yuqori tashkilotlardan kelgan **280 ta** hujjatlar kirim qilingan bo'lib, shundan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi topshirig'i **1 ta**, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining buyruqlari **20 ta**, qarorlari **2 ta**, bayonlari **4 ta**, topshiriqlari **6 ta**, chora-tadbirlar rejalari **22 ta**, xatlari **219 ta** va boshqa tashkilotlardan **334 ta** hujjatlar ro'yxatga olingan va ijroga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, 6 oy davomida institut rektorining asosiy faoliyatga doir **58 ta** ichki buyruqlari qabul qilinib, ijrosi nazoratga olingan.

*Institutga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar ijrosi to'g'risida*

Institutga, yarim yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan jami **29 ta** murojaatlar kirim qilingan bo'lib, shundan **6 ta** ish haqi to'g'risida arxiv

ma'lumotnoma, **1 ta** pedagogga xos bo'lmagan xatti-harakatlar to'g'risida, **1 ta** nohaq ishdan bo'shatilganligi to'g'risida, **1 ta** haq to'lash to'g'risida, **2 ta** qayta tayyorlov diplomini haqqoniyligini tasdiqlash to'g'risida, **18 ta** turli masalalar haqidagi murojaatlar ko'rib chiqilgan va ariza mualliflariga asoslangan javob xatlari yuborilgan.

## ***II. Institut ilmiy Kengashida muhokama etilgan masalalar***

**Institut ilmiy Kengashining** 2023-yil uchun tasdiqlangan rejasiga muvofiq yanvar-iyun oylarida **2-marta** (27-yanvar 1-son, 6-mart 2-son) yig'ilish o'tkazildi. Unda **jami 8 ta** masala muhokama qilinib, **32 ta qaror** qabul qilindi.

## ***III. Rektor huzuridagi ishlab chiqarish yig'ilishida ko'rilgan masalalar***

Institut rejasiga asosan yarim yil davomida **5 ta asosiy** va **1 ta navbatdan tashqari** (30-yanvar 1-son, 24-fevral 2-son, 27-mart 3-son, 21-aprel 4-son, 29-may 5-son va 10-mart) rektor huzuridagi ishlab chiqarish yig'ilishi o'tkazildi. Unda jami **16 ta masala** muhokama qilinib, **26 ta qaror** qabul qilindi. Qabul qilingan qarorlari ijrolari o'z muddatida bajarilishi yuzasidan monitoring olib borilmoqda.

## ***IV. Ilmiy-tadqiqot ishlari***

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasining mudiri M.Ergasheva tomonidan 13.00.02 – Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (tabiiy fanlar) yo‘nalishida Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun “O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi (PISA, TIMSS misolida)” mavzusidagi doktorlik ishi bo‘yicha yakuniy xulosalar tayyorlandi va joriy yilning 19-mayida Doktorlik ishi bo‘yicha Ilmiy-metodologik seminardan muvaffaqiyatli o‘tdi.

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasining katta o‘qituvchisi Xurshida Malikova “Pedagogika fani bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun “Bo‘lajak surdopedagoglarni metodik kompetensiyalarni rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishini himoya qildi.

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasining katta o‘qituvchisi N.Rajabova “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish” mavzusidagi falsafa doktorligi (PhD) dissertatsiyasi ishi joriy yilning iyun oyida Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti kafedra muhokamasidan muvaffaqiyatli o‘tdi va keyingi bochqich muhokamasiga tavsiya etildi.

Malaka oshirish jarayonlarida raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish, xalq ta’limi tizimi rahbar va pedagog xodimlarining boshqaruv hamda kasbiy kompetentligini tahlil qilish asosida ularning ehtiyojlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishida quyidagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan,

**Finlandiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Germaniya, Yaponiya, Singapur, Turkiya, Janubiy Koreya, Angliya, Fransiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Irlandiya, Daniya, Norvegiya, Ispaniya, Shvetsiya, Shveysariya, Niderlandiya, Belgiya, Avstriya, Estoniya, Polsha va Latviya davlatlaridagi** malaka oshirish jarayonlari o‘rganildi. Ushbu davlatlarning maktab rahbarlari hamda pedagog xodimlarining boshqaruv va kasbiy kompetentlikni rivojlantirish tizimlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlillar natijasida (*Content and organization forms of continuous professional development of teachers in developed countries, A German Journal World Bulletin of Social Sciences An International Journal, ISSN (E): 2749-361X, Journal Impact Factor: 7.545*). xorijiy maqola chop etildi.

Shuningdek, har bir bosqichda **10 ta** savollardan iborat bo‘lgan **4 bosqichli** onlayn so‘rovnoma (*“Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali tashkil etilgan onlayn malaka oshirish kursining mazmuni va tashkiliy jarayonlarining qaysi jihatlari sizni qanoatlantiradi?, Platforma orqali tashkil etilgan onlayn malaka oshirish kursining mazmuni va tashkiliy jarayonlarining qaysi jihati sizni qanoatlantiradi?, Platformada kiritilgan qaysi kompetensiya bo‘yicha berilgan kurslardan o‘z faoliyatingiz uchun zaruriy ma’lumotlarga ega bo‘ldingiz?, Kontent materiallari (fan o‘qituvchilari) tomonidan onlayn dasturlarni tashkil etishning qaysi jihatlari sizni qanoatlantiradi?*) o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari bo‘yicha tayyorlangan taklif va tavsiyalar Maktagacha va maktab ta’limi vazirligiga 2023-yil 3-apreldagi 04/09-76-sonli xat orqali yuborildi.

## **V. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi**

**Boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirish bo‘yicha rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Buxoro viloyatida** tashkil qilingan tajriba-sinov ishlarida **610 ta** boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ishtirok etdi. Ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida seminar, davra suhbat, o‘zaro savol-javob tashkil etildi, intervyu olindi va so‘rovnoma o‘tkazildi. Intervyular natijasida boshlang‘ich ta’lim muammolari bilan bog‘liq **3 ta** videorolik tayyorlandi. Ilmiy tadqiqot natijasiga ko‘ra, “Xalq ta’limi sohasi boshqaruv tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari” mavzusida boshlang‘ich ta’lim metodikalari ilmiy-tadqiqot bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami chop etildi.

Shuningdek, 2023-yil fevralda Polshada **o‘tkazilgan “Scientific aspects and trends in the field of scientific research”** Xalqaro ilmiy-onlayn konferensiyada *“Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish masalalari (Malayziya, Korea, Singapur davlatlari tajribalari asosida)”* nomli maqola bilan bo‘lim mudiri M.Badalova va katta ilmiy xodim O‘.Sharipov ishtirok etdi.

Bundan tashqari, Journal of innovations in scientific and educational research (Jiser) jurnalida *“Zamonaviy ta’limda sifat ko’rsatkichlarini oshirish: Boshlang’ich sinflarda o’quvchilarning optimal sonini belgilash bo’yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari”* nomli maqola tezisi chop etildi.

## **VI. O’rta ta’lim yo’nalishi**

Tasdiqlangan rejaga muvofiq **“Umumiy o’rta ta’lim mazmuni va metodikalari”** ilmiy-tadqiqot bo’limi tomonidan **Biologiya, kimyo va matematika fanlari** milliy o’quv dasturi mazmuni tanqidiy va tahliliy o’rganilmoqda. Bu yo’nalishda **2 ta maqola, 1 ta tezis va 1 ta videorolik** tayyorlandi.

**Biologiya fani** uchun milliy o’quv dasturi mazmuni tanqidiy va tahliliy o’rganildi, shuningdek, takomillashtirish yuzasidan qiyosiy jadval ishlab chiqilib Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga hamda Respublika ta’lim markaziga yuborilgan institutning 2023-yil 23-fevraldagi 02/09-58-sonli xatiga 31-martdagi 01/11-01/9-193-sonli javob xati olindi.

**Kimyo fani** uchun milliy o’quv dasturi mazmunini tanqidiy va tahliliy o’rganildi, shuningdek, takomillashtirish yuzasidan qiyosiy jadval ishlab chiqilib Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga hamda Respublika ta’lim markaziga yuborilgan institutning 2023-yil 28-martdagi 04/09-53-sonli xatiga 4-apreldagi 01/11-01/9-215-sonli javob xati olingan.

**Biologiya, kimyo, matematika fanlari** amaldagi metodikalarni takomillashtirish va yangi metodikalar ishlab chiqish bo’yicha **2 ta** maqola, **1 ta** videorolik tayyorlandi. **Biologiya fanini** o’qitishda zarur metodlar (ta’limga va shaxsga oid)ni tanqidiy va tahliliy o’rganildi, shuningdek, takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan qiyosiy jadval Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga hamda Respublika ta’lim markaziga yuborilgan 2023-yil 23-martdagi 04/09-46-sonli xatiga 31-martdagi 01/11-01/9-193-sonli javob xati olindi. Maktablarda ta’lim sifatini oshirishga va sinflarni ixtisoslashtirishga qaratilgan namunaviy variativ o’quv rejalar ishlab chiqilmoqda. Bu yo’nalishda tezis hamda videorolik tayyorlandi.

Institutda JICA va KEI Advanced tashkilotlari bilan hamkorlikda 2023-yil 1-3-fevralda barcha matematika o’qituvchilari uchun seminar-trening tashkil etilib, tajriba-sinov natijalari va o’quv dasturini amaliyotda qo’llash bilan bog’liq tajribalar yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Institutning yetakchi ilmiy xodimi A.Mamataliev tomonidan Respublika ta’lim markazining **biologiya fani** uchun milliy o’quv dasturi mazmuni tanqidiy va tahliliy o’rganildi, takomillashtirish yuzasidan qiyosiy jadval ishlab chiqildi. Tayyorlangan takliflar 2023-yil 23-fevralda 02/09-58-sonli xat bilan Maktabgacha



va maktab ta'limi vazirligiga hamda Respublika ta'lim markaziga yuborildi. O'rganish natijasiga ko'ra, "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027 SJIF: 4.995-fevral oyida **"Biologiya fani bo'yicha milliy o'quv dasturini amaldagi tahlili"** nomli maqola chop etildi.

Shuningdek, **"Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreyaning biologiya, kimyo va matematika fanlari o'quv dasturlarining qiyosiy tahlili"** nomli videorolik tayyorlandi. <https://avloniy.uz/uz/press-center/news/4>;

**"Tabiiy fanlar bo'yicha milliy o'quv dasturlarini amaldagi tahlili"** mavzusida "Maktab va hayot" ilmiy jurnalida (OAK) 03/13/10-2. 20.02.2023 maqola chop etildi;

**Finlandiya o'rta ta'lim maktablarida** o'qitishni tahlil qilish (matematika fan misolida) mavzusida <https://uza.uz/posts/462249> maqola ijtimoiy tarmoqda chop etildi;

Respublika ta'lim markazi tomonidan chiqarilgan biologiya fani uchun milliy o'quv dasturi mazmunini tanqidiy va tahliliy o'rganildi, shuningdek, takomillashtirish yuzasidan qiyosiy jadval ishlab chiqildi. Tayyorlangan takliflar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Respublika ta'lim markaziga taqdim etildi (2023-yil 23-fevralda 02/09-58-sonli xati);

**"Biologiya fani bo'yicha milliy o'quv dasturini amaldagi tahlili"** mavzusida maqola institutning "Xalq ta'limi: ilmiy muammolar" jurnaliga nashr etish uchun berildi.

**"Tabiiy fanlar bo'yicha milliy o'quv dasturlarini amaldagi tahlili"** bo'yicha maqola tayyorlanib <https://uza.uz/uz/posts/biz-oquvchilarni-hayotga-tayyorlaymiz> 487870 havola bilan ijtimoiy tarmoqda e'lon qilindi.

Institutning yetakchi ilmiy xodimi X.Kdirbaeva tomonidan *fanlar kesimida amaldagi metodikalarni takomillashtirish va yangi metodikalarni ishlab chiqish yo'nalishi* bo'yicha yuqori sinf o'quvchilarida tabiiy fanlarni natijali o'qitish metodlarini tanqidiy va qiyosiy tahlil qilish asosida "PEDAGOGS" international research (1/2023. ISSN: 2181-4027 SJIF: 4.995.) ilmiy jurnalida "Yuqori sinf o'quvchilarida tabiiy (science) fanlarni o'qitishdagi mavjud muammolar" nomli maqola chop etildi.

Xorijiy davlatlar misolida tabiiy fanlarni o'qitish jarayonini o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasiga ko'ra "Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar" nomli jurnalning (ISSN 2181-7286) 1/2023-sonida **"Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish"** mavzusida ilmiy maqola nashr etildi va to'plangan nazariy ma'lumotlar asosida institutning [youtube.com](https://youtu.be/peRIJ65kbAM?t=3) kanalidagi <https://youtu.be/peRIJ65kbAM?t=3> havola bo'yicha **"Xorij mamlakatlarida tabiiy fanlar qanday o'qitiladi?"** nomli videorolik joylandi.

Shuningdek, “Ustozlar uchun” nomli jurnalning 2023-yil aprel oyining 43-sonida **“Biologiya fanini o‘qitish metodikalarini tanqidiy va tahliliy o‘rganish shuningdek, takomillashtirish yuzasidan qiyosiy o‘rganish (ta‘limga va shaxsga oid)”** mavzusida maqola nashr etildi. Ushbu mavzu doirasida 2023-yil 26-mayda Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchilariga “Pedagogik jarayonda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni amaliyotga joriy etish” mavzusida o‘tkazilgan seminar natijasiga ko‘ra, tayyorlangan videorolik institut <https://youtu.be/37v0d17ZJwE> sahifasida yoritildi.

Institutning yetakchi ilmiy xodimi M.Mansurov tomonidan Respublikadagi umumta‘lim maktablarida amalda foydalanilayotgan mavjud o‘quv reja va variativ o‘quv rejalarni takomillashtirish yo‘nalishida olib borilayotgan tadqiqotlar o‘rganildi hamda mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. O‘rganish natijasiga ko‘ra, **“Umumta‘lim maktablari o‘quv rejalarning amaldagi holati tahlili (o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishdagi ahamiyati)”** nomli maqola Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar (6 jild. 1-son T.:2023-y.) jurnalida nashr etildi va “Mustaqil ta‘lim muammolari va o‘ziga xos yechimlar” nomli maqola <https://uza.uz/uz/posts/mustaqil-talim-muammolari-va-oziga-xos-echimlar> 447422 havolasi bo‘yicha ijtimoiy tarmog‘ida yoritildi.

“Xorij mamlakatlarda variativ o‘quv rejalarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha tajribalar” nomli maqola «Образование наука и инновационные идеи в мире» журнал (№ 17 часть, 2 март, 2023 г.) nashr etildi.

**Germaniya, Finlandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya** davlatlari ta‘lim tizimida maktablarga variativ o‘quv rejani shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan **“Variativ o‘quv rejalarni yaratish va joriy etishda dunyo ta‘limida qanday ishlar qilingan?”** nomli videorolik institutning rasmiy telegramm kanaliga (<https://t.me/avloniyuz/5716>) joylashtirilgan.

Oliy majlis qonunchilik palatasi O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi **“Yashil” energetikani amaliyotga tatbiq etish: yutuqlar va muammolar**” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida **“Umumta‘lim maktab o‘quv rejalarni shakllantirishda “Yashil” siyosatning o‘rni va ahamiyati”** (2023-may) (113-115 b.) nomli maqola nashr etildi.

Qashqadaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi tomonidan o‘tkazilgan (2023-yil 26-aprel) “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda **STEAM** texnologiyasini qo‘llash: xalqaro tajribalar, rivojlanish strategiyalari, intensiv usul va vositalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada **“Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta‘limning o‘rni muammo va yechimlar”** mavzusi bilan ishtirok etildi.

**“Maktablarda sinflarni ixtisoslashtirishga qaratilgan variativ o‘quv rejalarni takomilashtirish”** loyihasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga (2023-yil.25-mart 04/09-51-sonli xati) yuborilgan.

**“Maktab o‘quvchilarni baholashning jahon tajribasi va O‘zbekistonda baholashning ayrim muammo va kamchiliklari bo‘yicha mulohazalar”** nomli maqola institutning “Xalq ta’limi: ilmiy muammolar” jurnalida chop etishga berildi.

## ***VII. Kasbga yo‘naltirish yo‘nalishi***

“Kelajak maktabi rahbari va o‘qituvchisining kasbiy standarti bo‘yicha ilg‘or xorij davlatlarining tajribalarini o‘rganish” masalasi yuzasidan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlar asosida **“Variativ dastur va o‘quv metodik ta’minotlarni ishlab chiqish”** bo‘yicha maktab bitiruvchilarini jahon mehnat bozori bilan tanishtiruvchi **“Xalqaro mehnat bozori”** nomli uslubiy qo‘llanma tayyorlandi.

Joriy yilning 30-may kuni **“Mehnat bozori talablari asosida maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish masalalari”** mavzusida onlayn vebinar tashkil etildi. Ushbu vebinarida **300 nafarga** yaqin ishtirokchi qatnashdi.

“Kasb-hunarga yo‘naltirish metodologiyasi” bo‘limi xodimlari yetakchi ilmiy xodim falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) J.Saitmurodov “Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi”, katta ilmiy xodim N.Ziyodullayev “O‘zbekiston mehnat bozorining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari” mavzusi bilan ishtirok etdi.

**“Maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maxsus maqsadli kurs yaratish va unda o‘qituvchilarning malakasini oshirish” bo‘yicha “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish”** nomli maqsadli kursning o‘quv reja va o‘quv dasturi loyihasi ishlab chiqilmoqda. Xususan, **18 soatga** mo‘ljallangan qisqa muddatli maqsadli o‘quv kursi mashg‘ulotlar mazmuni ishlab chiqildi.

## ***VIII. Ta’lim sifati va xalqaro baholash yo‘nalishi***

**Zamonaviy xalqaro talablar asosida boshlang‘ich ta’lim sifatini baholashning ilmiy asoslangan, samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya etish: Boshlang‘ich ta’lim sifatini baholashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish** bo‘yicha xorijiy tajribalar, jumladan, **Finlandiya tajribasi** o‘rganildi. Boshlang‘ich ta’lim sifatini baholashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish tadqiqotining tugallanish muddati 2024-yilgacha mo‘ljallangan bo‘lib, hozirda tadqiqotning nazariy adabiyotlar tahlili jarayoni yakunlandi. Mazkur tadqiqot natijalari va amaldagi xorijiy va milliy boshlang‘ich ta’lim sifatini baholash mexanizmini o‘rganish, tanqidiy, qiyosiy-tahliliy ma’lumotlar asosida Shomurodova Sitoraning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining

matni o‘qib tushunish savodxonligini baholash” mavzusidagi maqolasi Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida tashkil etilgan **“Pedagoglar malakasini oshirishning axborot-ta’lim muhitini tashkil etish: muammo va yechimlar”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida chop etildi.

**Umumiy o‘rta ta’lim sifati ta’lim-tarbiya jarayoniga sog‘lom ijodiy muhitni yaratish muhim omil ekanligini hisobga olib, unga qo‘yilgan talablar va mezonlarni ishlab chiqish, ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etish yuzasidan taklif, tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha** katta ilmiy xodim N.Tashtemirova tomonidan Umumiy o‘rta ta’lim maktabidagi o‘quvchilarning kreativ fikrlashini baholash mezonlari **Rossiya Federatsiyasining** tadqiqotlari misolida o‘rganildi, PISA tadqiqotining topshiriqlarida kreativ fikrlash ko‘nikmasining baholanishi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plandi va tahlil etildi.

**O‘rganishlar natijasi asosida Matematik savodxonlikda kreativ yechimlarni topa olish, o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar va ularning baholash mezonlari** ishlab chiqildi va N.Tashtemirova hammuallifligida xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan tayanch maktablar uchun **“Matematik savodxonlik”** bo‘yicha metodik qo‘llanma nashr etildi.

**O‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholashning amaldagi mexanizmlarini tahlil qilish bo‘yicha** Andijon va Namangan viloyatlari maktab o‘quvchilarining **“Stesting.uz”** elektron platformasida joylashtirilgan xalqaro tadqiqotlar (PISA, PIRLS, TIMSS) ga doir ochiq topshiriqlarning natijalari tahlil qilindi va tahlillar asosida videorolik tayyorlandi. Ikki oy davom etgan tahlillar natijasida quyidagilar aniqlandi:

**tadqiqotning o‘qish savodxonligi yo‘nalishida** Andijon viloyati o‘quvchilari **6,8%**, Namangan viloyati o‘quvchilari **7,57%** natija ko‘rsatgani aniqlandi;

**tadqiqotning tabiiy-ilmiy savodxonlik yo‘nalishida** Andijon viloyatida **10,6%**, Namangan viloyatida **15,5%** ko‘rsatkich qayd etilgan;

**tadqiqotning matematik savodxonlik yo‘nalishida** Andijon viloyatida **11,8%**, Namangan viloyatida **13,6%** natija kelib chiqqan.

4- va 8-sinf o‘quvchilarining **matematika** va **tabiiy fanlardan** olgan bilimlarini baholash maqsadida **“Stesting.uz”** elektron platformasida joylashtirilgan xalqaro tadqiqot (TIMSS) ga doir ochiq topshiriqlarning xalqaro baholash tadqiqotlari olib borildi.

Xususan tadqiqot natijalariga ko‘ra, **matematika** yo‘nalishida **Andijon viloyati** o‘quvchilari **152 ball (15,2%)**, **Namangan viloyati** o‘quvchilari **157 ball (15,7%)** to‘plaganlar.

Tadqiqotning **tabiiy fanlar** yoʻnalishi boʻyicha **Andijon viloyati** maktab oʻquvchilarining natijalari **148 ball (14,8%)**, **Namangan viloyati** maktab oʻquvchilarining natijalari **212 ball (21,2%)** koʻrsatgan.

**Xalqaro baholash dasturlari boʻyicha yetakchi davlatlar tajribasini oʻrganish, dasturga yangi qoʻshilgan davlatlarning taʼlim siyosatidagi tendensiyalarini qiyosiy tahlil qilish va oʻrganilgan maʼlumotlar asosida** katta ilmiy xodim N.Tashtemirovaning “TIMSS-2023 tadqiqotida innovatsion topshiriqlar va ularning asosiy xususiyatlari” mavzusidagi maqolasi Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazida tashkil etilgan “*Pedagoglar malakasini oshirishning axborot-taʼlim muhitini tashkil etish: muammo va yechimlar*” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada chop etildi.

**Kompetensiyalarni baholashga qaratilgan testlarni shakllantirish yuzasidan** 9-sinf oʻquvchilarning oʻquv yili davomida matematika fani doirasida shakllangan kompetensiyalarini baholashga qaratilgan har biri **10 ta** topshiriqdan iborat boʻlgan **5 ta** variantda topshiriqlarga qiyinlik darajasiga qarab **50 ballik** shkala asosida baholanishi nazarda tutilgan topshiriqlar bazasi shakllantirildi. Tadqiqot ishi natijasi N.Tashtemirova hammuallifligida 2022–2023-oʻquv yilida umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinf oʻquvchilari uchun **matematika** fanidan yakuniy davlat attestatsiyasini oʻtkazish boʻyicha metodik tavsiya va materiallar ishlab chiqildi.

**Xalqaro baholash dasturlari boʻyicha yetakchi davlatlar tajribasini oʻrganish, dasturga yangi qoʻshilgan davlatlarning taʼlim siyosatidagi tendensiyalarini qiyosiy tahlil qilish** boʻyicha Xalqaro baholash dasturlari **TIMSS** tadqiqotida ishtirok etgan yetakchi davlatlar tajribasi hamda **TIMSS-2023** topshiriqlarining asosiy xususiyatlari oʻrganildi va tahlil qilindi.

Mazkur oʻrganishlar natijasi asosida katta ilmiy xodim N.Tashtemirovaning “**TIMSS 2023 tadqiqotida innovatsion topshiriqlar va ularning asosiy xususiyatlari**” mavzusidagi maqolasi Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazida tashkil etilgan “Pedagoglar malakasini oshirishning axborot-taʼlim muhitini tashkil etish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida chop etildi.

**Xalqaro dasturlar doirasida ishlab chiqilgan metodik qoʻllanmalarni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish boʻyicha** STesting platformasining nashrlar boʻlimi xalqaro bandiga <https://stesting.uz/uz/publication> “PIRLS 2021”da ishtirok etgan har bir mamlakatda oʻqish va til oʻrgatish profili hamda taqqoslash tizimlari koʻrsatib oʻtilgan “The PIRLS 2021 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Reading” qoʻllanmasi joylashtirildi.

## ***XI. Taʼlim menejmenti va statistikasi yoʻnalishi***

Institutning “Ta’lim menejmenti va statistikasi” ilmiy-tadqiqot bo‘limi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bilan hamkorlikda xalq ta’limi tizimi statistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha tizimga mos metod va mezonlarni aniqlashtirish, Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini samarali boshqarishning demografik omillarini belgilash bo‘yicha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, **Sirdayo** va **Jizzax** viloyatlarida **“Siz tahsil berayotgan sinfda necha nafar o‘quvchilar ta’lim olmoqda?”** nomli onlayn so‘rovnoma tashkil qilindi. So‘rovnomada **11 900 nafar** respondentlarning **3 420 nafari** bevosita ovoz berish jarayonida ishtirok etdi.

So‘rovnomada, **79%** respondentlar maktablarning asosiy qismida **1 ta** sinfda **35 nafargacha** o‘quvchi tahsil olishini tasdiqlagan, **10%** Ishtirokchilar **1 ta** sinfda **36 nafardan 40 nafargacha**, hatto **40 nafardan** ortiq o‘quvchi tahsil olayotgan sinflar mavjud ekanligi ta’kidlashgan.

So‘rovnoma **Jizzax** va **Sirdaryo** viloyatlarida aholi soni (o‘quvchilar soni)ning joriy holatini, shuningdek, o‘shir jarayonini o‘rganish, prognoz qilish orqali maktablar sig‘imini oshirish yoki yangi maktablar tashkil etishga zarurat mavjudligini ko‘rsatdi.

Bundan tashqari **“Bitta sinfda necha nafar o‘quvchining ta’lim olishini xohlar edingiz?”** nomli o‘tkazilgan so‘rovnomada **7 420 nafar** respondentlardan **2 490 nafari** bevosita ovoz berish jarayonida ishtirok etishgan.

So‘rovnomaning **76%** ishtirokchilari sinfda **25 nafargacha** o‘quvchining tahsil olishini tanlashgan. O‘qituvchilar uchun o‘quvchilar soni **25 nafardan** oshmasligi ma’qul va o‘qituvchilarni ortiqcha yuklamadan ozod qiladi, sifatli ta’lim berish uchun qulay sharoit yaratishini ta’kidlashgan.

Bundan tashqari, **“Sizningcha ta’lim sifatining yuqori bo‘lishi o‘quvchilar soniga bog‘liqmi?”** nomli so‘rovnomada qatnashgan **7 380 nafar** respondentlarning **1 020 nafari** bevosita ovoz berish jarayonida ishtirok etgan. Ishtirokchilarning **77%** o‘quvchilar soni qancha kam bo‘lsa, ularga bilim berish shuncha yaxshi bo‘ladi, o‘quvchilar sonining kamligi ta’limning sifatiga ijobiy ta’sir qilishini ta’kidlagan.

Ilmiy-tadqiqot ishlari davomida **44%** respondentlar boshlang‘ich sinflarda dars jarayonlarini samarali tashkil etish uchun o‘quvchilar soni **15-20 nafar** oralig‘ida bo‘lishi kerak deb, **34,3%** respondentlar **20-25 nafar** o‘quvchining bir sinfda bo‘lishi, **19,8%** respondentlar bir sinfda **10-15 nafar** o‘quvchining bo‘lishi ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi deb fikr bildirgan.

Hozirda “O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil aholini ro‘yxatdan o‘tkazish jaryonida maktabgacha va maktab ta’limi tizimining o‘rni qanday bo‘ladi? Bu borada, jahon ta’lim tizimi statistikasi qay darajada shakllangan? Aholini ro‘yxatga

olishda ta'lim tizimi statistikasining hisoblash metodologiyasi bormi?"- degan savollarga javob topish maqsadida ilmiy tadqiqot ishi olib borilmoqda.

## **XII. Uslubiy ishlar**

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” elektron platformasida ta'lim o'zbek tilida olib borilayotgan maktablar uchun **31 ta** (*informatika va axborot texnologiyalari, matematika, fizika, biologiya, kimyo, nemis tili, fransuz tili, davlat va huquq asoslari, tarix, musiqa madaniyati, tarbiya, ingliz tili, ona tili va adabiyoti, davlat tili (o'zbek tili), rus tili va adabiyoti (o'zbek va qardosh tillar), geografiya, texnologiya, tasviriy san'at va chizmachilik, ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha hamda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari*), ta'lim rus tilida olib borilayotgan maktablar uchun **5 ta** (*matematika, fizika, biologiya, kimyo hamda rus tili va adabiyoti*) va ta'lim tojik tilida olib borilayotgan maktablar uchun **1 ta** (*boshlang'ich ta'lim (tojik tilida)*) yo'nalishlar bo'yicha onlayn malaka oshirish kurslari faollashtirildi.

Ta'lim o'zbek tilida olib borilayotgan maktablar pedagoglari uchun **562 ta** videodars **562 ta** taqdimot va **2248 ta** nazorat topshiriqlari, ta'lim **rus tilida** olib borilayotgan maktablar pedagoglari uchun **180 ta** videodars, **180 ta** taqdimot va **720 ta** nazorat topshiriqlari, ta'lim tojik tilida olib borilayotgan maktablar uchun **22 ta** videodars, **22 ta** taqdimot va **110 ta** nazorat topshiriqlari ishlab chiqilgan va platformaga joylashtirilgan.

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” maxsus elektron platformasi faoliyatini yuritish, malaka oshirish tashkilotlari bilan birgalikda qayta tayyorlash va kasbiy rivojlantirish kurslari o'quv modullari kontentini tanlov asosida ishlab chiqish hamda platformaga kiritilish masalalari bo'yicha Ommaviy axborot vositalariga **3 marta** intervyu berildi. Jumladan,

Bo'lim mudiri E.Alkarov **“Toshkent”** va **“O'zbekiston 24”** telekanalida **“Uzluksiz kasbiy ta'lim” platformasi imkoniyatlari** va **“Finlandiya tajribasi: o'quv dasturi va darsliklar tajribadan o'tkazilmoqda”** nomli mavzusida, katta ilmiy xodim B.Xurramov **“O'zbekiston 24”** telekanalida **“Taraqiyot formulasi”**, **“Malaka oshirish tizimidagi islohotlar”** va **“Onlayn ta'lim tizimini joriy etilishi dolzarbligi”** mavzusida ishtirok etishdi.

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” elektron platformasida yaratilayotgan mexanizmlar bo'yicha Institut ijtimoiy tarmog'ida bo'lim tomonidan **30 ta** nomdagi **posterlar** e'lon qilindi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni tashkil etish, pedagog kadrlar faoliyatini o'rganish bo'yicha ota-onalarning maktab ta'limga munosabatini o'rganish maqsadida <https://t.me/avlonyuzva>, [https://t.me/raqamli pedagogik xizmatlar](https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar) telegram kanallarida hamda <https://docs.google.com/forms/> saytida

2023-yil 10-fevral kuni “**Maktab ta’limiga ota-onalarning munosabati**” nomli so‘rovnoma o‘tkazildi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirish bo‘yicha rejada belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida **Buxoro viloyatida ilmiy-tadqiqot ishlarida 680 nafar** boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ishtirok etishdi. Ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida **6 ta seminar, 5 ta davra suhbat, o‘zaro savol-javoblar** tashkil etildi, shuningdek, **21 ta intervyu** olindi. Intervyular natijasida boshlang‘ich ta’lim muammolari bilan bog‘liq **3 ta** videorolik tayyorlandi.

Ta’lim muassasalari pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari uchun “**Uzluksiz kasbiy rivojlantirish: UKR-2022**” loyihasi doirasida umumta’lim fanlari (**14 ta fan**) va kurs modullari (**4 ta modul**) kesimida yaratilgan kontentlar tahrirlandi va uzluksiz kasbiy rivojlantirish platformasiga joylashtirish uchun taqdim etildi.

### ***XIII. O‘quv ishlari***

Institutning **2023-yil ish rejasiga muvofiq** joriy yilning **30-yanvaridan** “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom” talablariga qat’iy rioya qilgan holda Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan ta’lim muassasalari rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish ishlari **tashkil etildi**. Jumladan,

**2023-yil 30-yanvardan 2023-yil 23-iyunga qadar** Qoraqalpog‘iston Respublikasidan **248 nafar**, Andijon viloyatidan **297 nafar**, Buxoro viloyatidan **212 nafar**, Jizzax viloyatidan **255 nafar**, Qashqadaryo viloyatidan **387 nafar**, Navoiy viloyatidan **192 nafar**, Namangan viloyatidan **320 nafar**, Samarqand viloyatidan **359 nafar**, Surxondaryo viloyatidan **245 nafar**, Sirdaryo viloyatidan **144 nafar**, Toshkent viloyatidan **218 nafar**, Farg‘ona viloyatidan **235 nafar**, Xorazm viloyatidan **216 nafar** va Toshkent shahridan **175 nafar**, **jami 3503 nafar maktab direktorlari** malaka oshirib, tegishli sertifikatga ega bo‘ldilar.

Shundan, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan **14 nafar**, Andijon viloyatidan **4 nafar**, Buxoro viloyatidan **4 nafar**, Jizzax viloyatidan **6 nafar**, Qashqadaryo viloyatidan **14 nafar**, Navoiy viloyatidan **9 nafar** Namangan viloyatidan **10 nafar**, Samarqand viloyatidan **5 nafar**, Surxondaryo viloyatidan **13 nafar**, Sirdaryo viloyatidan **9 nafar**, Toshkent viloyatidan **4 nafar**, Farg‘ona viloyatidan **15 nafar**, Xorazm viloyatidan **2 nafar** va Toshkent shahridan **5 nafar**, **jami 114 nafar “Barkamol avlod”** bolalar maktablari direktorlari malaka oshirib, sertifikatga ega bo‘ldilar.



Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan **3 nafar**, Andijon viloyatidan **4 nafar**, Buxoro viloyatidan **4 nafar**, Jizzax viloyatidan **4 nafar**, Qashqadaryo viloyatidan **2 nafar**, Navoiy va Namangan viloyatlaridan **0 nafar**, Samarqand viloyatidan **1 nafar**, Surxondaryo viloyatidan **6 nafar**, Sirdaryo viloyatidan **2 nafar**, Toshkent viloyatidan **1 nafar**, Farg‘ona viloyatidan **11 nafar**, Xorazm viloyatidan **2 nafar** va Toshkent shahridan **11 nafar**, **jami 53 nafar Maxsus ta‘lim muassasalari** direktorlari malaka oshirib, tegishli sertifikatga ega bo‘ldilar.

**O‘quv jarayoni mobaynida ichki tartiblarni buzgan** (o‘qishga kelmagan, darslarda qatnashmagan) **38 nafar** umumta‘lim maktabi direktorlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslaridan chetlashtirildi.

Institutning “**Ilmiy va pedagogik xizmatlar**” markazi tomonidan **2022-yilda** tashkil etilgan **9 ta kasbiy qayta tayyorlash kurslarida** (**3 ta** matematika, **2 ta** tarix, **1 ta** informatika, **1 ta** kimyo, **1 ta** rus tili va **1 ta** psixologiya) o‘qish jarayoni davom etmoqda.

Shuningdek, 2023-yil yanvar-iyun oylarida **jami 13 ta** (**3 ta** matematika, **2 ta** informatika, **1 ta** ingliz tili, **1 ta** texnologiya, **1 ta** ona tili, **1 ta** tasviriy san‘at, **1 ta** boshlang‘ich ta‘lim, **1 ta** fizika, **1 ta** psixologiya, **1 ta** pedagogik faoliyat) **kasbiy qayta tayyorlash kurslari** tashkil etildi.

Qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari uchun professor-o‘qituvchilar taqdim etgan majmualar va foydali adabiyotlardan iborat **89 xil** turdagi (xususan, **35 ta o‘quv-uslubiy majmualar**, **20 ta adabiyotlar**, **22 ta taqdimotlar** va **12 ta BMI namunalari**) materiallar arxivlangan faylda [https://t.me/Avloniy\\_ARM](https://t.me/Avloniy_ARM) ga yuklandi.

Oliy ta‘lim tashkilotlarining pedagog bo‘lmagan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarni qayta tayyorlash kurslarida o‘qishi bo‘yicha telefon va [https://t.me/avloniy\\_qayta\\_tayyorlov](https://t.me/avloniy_qayta_tayyorlov) qayta tayyorlash guruhi telegram chatiga (**5 400 ortiq a‘zolari**) 1-iyul holatiga **130 nafardan** ortiq mutaxassislar bilan suhbatlashildi, taklif va yo‘nalishlar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi. Kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha Milliy dastur asosida takomillashtirildi hamda **16 nomdagi** targ‘ibot posterlari ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirildi.

Institutning rasmiy telegram kanalida <https://t.me/avloniyuz> qayta tayyorlov kurslari uchun **8 ta** post qo‘yildi. Ushbu postlar ijtimoiy tarmoqdagi **26 000 ga** yaqin foydalanuvchilar tomonidan ko‘rildi. Shuningdek, ta‘limga oid bo‘lgan ([https://t.me/raqamli pedagogik xizmatlar](https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar)) (<https://t.me/uztdi>) rasmiy kanalda qayta tayyorlash kurslari haqida ma‘lumotlar berib borilmoqda. Kunlik murojaatlarni qabul qilish hamda talabgorlardan kelayotgan savollarga tezkorlik bilan javob berish maqsadida [https://t.me/avloniy\\_qayta\\_tayyorlov](https://t.me/avloniy_qayta_tayyorlov) guruhi faoliyat

olib bormoqda. Kunlik yozishmalar **100 dan** ortiq bo'lgan ushbu guruhda hozirda foydalanuvchilar soni **5 900 nafardan** oshdi.

#### *XIV. Tajriba-sinov ishlari*

**Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirish bo'yicha mavjud muammolarni o'rganish natijalari (tajriba-sinov uchun belgilangan hududlarda)** bo'limi tomonidan Buxoro viloyatining Vobkent, Jondor, Qorako'l, Olot, Buxoro tumanlari va Buxoro shahrida **780 nafar** boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirokida onlayn seminarlar, suhbatlar, intervyular o'tkazildi va o'rganish natijalariga ko'ra boshlang'ich ta'lim muammolari bilan bog'liq **3 ta** videorolik tayyorlandi hamda **12** soatlik **2-sinf Science** fani **“Mashq daftari”** metodik qo'llanma ishlab chiqildi.

#### *XV. Xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan konferensiyalar*

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” kafedrasida dotsenti M.Abdullayeva 2023-yil 26-yanvar kuni AQSH elchixonasi jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi hamda Davlat test markazi hamkorligida “Ta'limda test sinovlari xizmati” dasturi va chet tili o'qituvchilari tilni bilish darajasini aniqlash bo'yicha xalqaro “TOEFL” test tizimi bo'yicha istiqboldagi hamkorlik masalalariga bag'ishlangan xalqaro amaliy seminarda, 2023-yil 10-mart kuni “New Directions Series in English Language Assessment” mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etdi hamda 24-mart kuni AQSH Xalqaro ta'lim instituti(IIE), Fulbrayt (Fulbright) dasturi doirasida tashkil etilgan xalqaro vebinar(forum)da “Maktab direktori-lider sifatida” (School principals as a leader) mavzusida taqdimot qildi.

Shuningdek, A.Avloniy milliy-tadqiqot instituti va Britaniya Kengashi hamkorligida amalga oshirilayotgan loyiha tarkibidagi “Online Teacher Community” (Onlayn o'qituvchilar jamoasi) dasturi doirasida 16-fevral va 7-mart kunlari tashkil etilgan amaliy seminarda ishtirok etdi.

#### *XVI. Ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash*

Institutda Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun **jami 22 nafar doktorant** (*10 nafari 1-bosqich (shundan 2 nafari maqsadli tayanch doktorantura), 11 nafari 2-bosqich (shundan 4 nafari maqsadli tayanch doktorantura) va 1 nafari 3-bosqich*), **1 nafar DSc doktorant, 2 nafar stajor-tadqiqochi** hamda **22 nafar mustaqil izlanuvchi (PhD), 3 nafar mustaqil izlanuvchilar (DSc), jami 50 nafar** tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanuvchilik faoliyati amalga oshirilmoqda.

Mustaqil izlanuvchilikka phdmininnavigation.uz tizimi orqali hujjat topshirgan 1 nafar talabgor 2023-yil 28-fevral kuni o'tkazilgan imtihonda komissiya qaroriga

asosan talabgor suhbatdan o'tmadi, 2023-yil 3-choragi uchun phdminnavation.uz tizimi orqali hujjat topshirgan **1 nafar** talabgorga 2023-yil 23-may kuni o'tkazilgan qabul imtihonida *komissiya qaroriga asosan talabgor mustaqil izlanuvchilikka qabul qilindi.*

Institutning **2 nafar mustaqil izlanuvchisi (PhD)** D.Yusupova, E.Muradov, **2 nafar (DSc) tadqiqotchisi** M.Ergasheva, N.Mamanazarova va doktorant F.Abdullayev aprel va may oylarida **dissertatsiya** ishi bo'yicha kafedra va ilmiy seminardan muvaffaqiyatli o'tishdi.

2023-yil 6-7-aprel kunlari Institut doktorant va stajor-tadqiqotchilari faoliyati samaradorligi bo'yicha monitoring tashkil etildi. Institut doktorant va stajor-tadqiqotchilarining dissertatsiya mavzulari yuzasidan konsepsiya ishlab chiqildi. Institutning **16 nafar** doktorantlarining ilmiy-tadqiqot mavzulari e'lon qilish bo'yicha OAK ga xat yuborildi va mavzulari [mavzu.oak.uz](http://mavzu.oak.uz) platformasiga joylashtirildi.

Institutning 2023-yil 30-yanvarda "Institut doktorant, mustaqil izlanuvchi va stajor-tadqiqotchilarining ilmiy rahbar va konsultantlarini tayinlash hamda dissertatsiya mavzularini tasdiqlash to'g'risida" 01-06-sonli, 2023-yil 28-aprelda "Malakaviy imtihonni tashkil etish to'g'risida" 01-27-sonli buyrug'i qabul qilindi va belgilangan tartibda doktorantlar uchun malakaviy imtihon tashkil etildi. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan talabgorlarga guvohnomalar tarqatildi. Shuningdek, 2023-yil 4-may kuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga Institutning doktorantura ixtisosliklariga 2024-yilgi qabul kvotasi uchun 01/09-171-sonli xat yuborildi.

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti magistraturasiga talabalar qabulini tashkil etish maqsadida 2022/2023-o'quv yilining dekabr-yanvar oylarida "**Ta'lim menejmenti**" magistratura mutaxassisligi bo'yicha qishki qabul tashkil etildi. 2022/2023-o'quv yili yanvar oyi qabul natijalariga asosan **70411201-Menejment** (ta'lim menejment) mutaxassisligi magistratura bosqichiga to'lov-kontrakt asosida **10 nafar** talaba qabul qilindi. **2 nafar** talaba (G.Sidikova va X.Nurboyeva) o'z xohshiga ko'ra yozgan arizasi asosida talabalar safidan chetlashtirildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga institutning "2023/2024 o'quv yili uchun "**Ta'lim menejmenti**" va "**Kattalar ta'limi**" bir yillik magistratura mutaxassisliklariga kvota ajratish bo'yicha" 2023-yil 15-iyinda 04/09-331-sonli xati yuborildi.

## ***XVII. Ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil qilish***

Navro'z umumxalq bayramini yuqori saviyada o'tkazish maqsadida institut hududida obodonchilik va ko'kalamzorlashtirishga qaratilgan hashar o'tkazildi.

Navro‘z umumxalq bayrami kunlarida “Har kuning bo‘lsin, Navro‘z” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar uyushtirildi. Navro‘z umumxalq bayramiga taklif qilingan faxriylar hamda institut jamoasiga bayram dasturxonini yozilib, Navro‘z taomlari tarqatildi.

### ***XVIII. Xalqaro hamkorlik ishlari***

**2023-yil 30-yanvarda** Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) hamkorligida olib borilayotgan “O‘zbekistonda Yaponiya uslubidagi akademik yutuqlar test modelini joriy etish” loyihasining 3-bosqich yakunlari ko‘rib chiqildi. Tadbirda JICA tashkilotining O‘zbekistondagi va Yaponiyadagi vakillari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining tegishli departament boshliqlari, institut rahbariyati va Respublika ta’lim markazi ishtirok etdi. Tadbirda Yaponiyaning KEI Advanced Ins. (loyiha koordinatori) hamda Hapiral Solutions (loyihada imtihon savollarini yaratuvchi va imtihonlarni o‘tkazuvchi) tashkiloti vakillari 2 yil davomida olib borilgan ishlar, loyiha doirasida tanlab olingan umumta’lim va xususiy maktablarning 8-, 9-, 10-sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan tajriba-sinov test imtihonlari natijalarini vazirlik xodimlariga taqdim etildi.

**2023-yil 15-fevralda** A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rahbariyati Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining Osiyo Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikda rejalashtirayotgan **STEAM** loyihasida belgilangan vazifalar yuzasidan loyiha mutaxassislari Dr. Marina Conell va John Connell bilan uchrashuv o‘tkazildi. Uchrashuvda Respublikamizda tashkil etiladigan **200 ta STEAM** laboratoriyalariga ega umumta’lim maktablarining **STEAM** fanlari o‘qituvchilarini A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutining **LMS** platformasi orqali malakasini oshirishga kelishib olindi.

**2023-yil 16-fevral** kuni institut rektori A.Radjiyev, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Jahon Banki o‘rtasida rejalashtirilayotgan loyiha doirasida mazkur tashkilotning ta’lim bo‘yicha ekspert Viktoriya Babaxodjayeva hamda bosh iqtisodchi Hiroshi Saeki bilan uchrashuv o‘tkazdi. Jahon Banki mutaxassislari ta’lim sohasida bo‘sh ish o‘rinlari haqida ma’lumot berish va ishga joylashish jarayonini yanada osonlashtirish maqsadida yaratilayotgan “National Teachers Reserve” (Milliy o‘qituvchilar zaxirasi) loyihasi katta qiziqish uyg‘otdi. Uchrashuv yakunida tomonlar rejalashtirilayotgan ushbu loyihaning institutga tegishli qismi, ya’ni o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish yuzasidan hamkorlik olib borish bo‘yicha kelishib olindi.

**2023-yil 18-fevral** kuni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish sohasidagi xalqaro mahalliy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi “English Reform Steering Group”ning

navbatdagi uchrashuvi A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot institutida bo‘lib o‘tdi. Unda Amerika elchixonasi, Xalqaro ta‘lim bo‘yicha Amerika kengashlari (American Councils), O‘zbekistondagi Buyuk Britaniya kengashi (British Council), Respublika ta‘lim markazi, Davlat test markazi va Norvich til ta‘limi instituti (NILE) vakillari ishtirok etdi. Ushbu uchrashuvda hamkor tashkilotlar tomonidan ingliz tilini umumta‘lim maktablarida o‘qitish va o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi hamda umumta‘lim maktab ingliz tili o‘qituvchilarining hozirgi kundagi faoliyati va o‘sishi bo‘yicha loyiha amalga oshirishga kelishib olindi.

**2023-yil 20-fevral** kuni Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rahbariyati RTI International tashkilotining ta‘lim bo‘yicha mutaxassisi Sara Puezevara bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda institut tomonidan malaka oshirish tizimida olib borilgan islohotlar hamda “Uzluksiz kasbiy ta‘lim” (LMS), Uzlms, STesting platformalari haqida ma‘lumot berildi. AQSH Xalqaro Hamkorlik Agentligi (USAID) tomonidan e‘lon qilinishi kutilayotgan yangi loyiha doirasida tomonlarning hamkorlikda ish olib borishlari belgilandi. Uchrashuv so‘ngida tomonlar AQSH xalqaro hamkorlik agentligining (USAID) yangi loyihasi doirasida umumta‘lim maktab o‘qituvchilarini inklyuziv ta‘lim bo‘yicha malakasini oshirishda o‘zaro hamkorlik qilishga kelishib olindi.

*“Hamkorlik to‘g‘risidagi milliy kelishuv” (National Compact)ni  
ishlab chiqish loyihasi*

**UNICEF, Ta‘lim bo‘yicha global hamkorlik tashkiloti** hamda boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda “Hamkorlik to‘g‘risidagi milliy kelishuv”ni ishlab chiqish yuzasidan 2023-yil 19-yanvar, 21-22-fevral, 5-aprel va 12-may kunlari davra suhbatlarini tashkil etishda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligiga yaqindan ko‘mak berildi, shuningdek, mazkur uchrashuvlarni tashkil etishda faol ishtirok etildi. “Hamkorlik to‘g‘risidagi milliy kelishuv” loyihasini yaratishda **Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Britaniya kengashi, Amerika kengashlari, UNESCO, UNICEF, JICA, KOICA** kabi xalqaro tashkilotlarning O‘zbekistondagi vakolatxonalari vakillaridan iborat **jami 50 nafar** ishtirokchilar qatnashdi.

**BMTning bolalar jamg‘armasi UNICEF** tomonidan tasdiqlangan “Hamkorlik bo‘yicha milliy kelishuv (National Compact) hujjatini yaratish” loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha guruh tomonidan amalga oshirilgan ishlarning tarmoq jadvali ijrosini ta‘minlash maqsadida institut tomonidan buyruq chiqarilgan. Loyihani amalga oshirishda turli xil ta‘lim sohalaridan **30 nafar** mutaxassislarni 2023-fevral oyidan **3 oy** muddatga jalb etildi.

*“O‘zbekistonda Yaponiya uslubidagi akademik yutuqlar test modelini joriy etish”  
(JICA) loyihasi*

“O‘zbekistonda Yaponiya uslubidagi akademik yutuqlar test modelini joriy etish” loyihasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Yaponiya xalaro hamkorlik agentligi (JICA) o‘rtasida 2021-yil 13-avgust kuni imzolangan hamkorlik kelishuvi (Minutes of the meeting) asosida amalga oshirilib kelinmoqda.

Loyihaning asosiy maqsadi maktab o‘quvchilarining matematika fanidan bilim darajasini aniqlab beruvchi Yaponiya uslubidagi baholash modelini ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun respublikaning 14 ta ma’muriy hududlaridan aholi zichligiga ko‘ra jami **40 ta** maktab tasodifiy tanlash uslubi orqali loyihaga jalb etildi.

*“Future English in Uzbekistan” (British Council) loyihasi*

2021-yil avgust oyidan 2023-yilning may oyiga qadar Britaniya Kengashi (British Council) bilan hamkorlikda umumta’lim ingliz tili fani o‘qituvchilarini baholash, inklyuziv, kommunikativ va o‘quvchilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish bo‘yicha umumta’lim maktab ingliz tili fani o‘qituvchilarini malakasini oshirishga qaratilgan **“Future English in Uzbekistan”** loyihasi amalga oshirildi.

Loyihaning **1-bosqichida 1 500 nafari** o‘qituvchi pedagoglar qatnashdi, ulardan **1 302 nafari** sertifikatlariga ega bo‘ldi. 2021-2022-o‘quv yili davomida **jami 3 000 nafar** ingliz tili o‘qituvchilari **2-bosqichi** doirasida ishtirok etdi va ulardan **2 000 nafari** kurslarni muvaffaqiyatli yakunlab, malaka oshirish bo‘yicha **9,0 kreditni** qo‘lga kiritdi. Loyihaning **3-bosqichi** doirasida 2022-yilning oktabr oyidan 2023-yilning yanvar oyiga qadar davom etayotgan malaka oshirish kurslarida **1 800 nafar** ingliz tili o‘qituvchilari ishtirok etdi va **712 nafari** kurslarni muvaffaqiyatli yakunlab, malaka oshirish bo‘yicha sertifikatlariga ega bo‘ldi. Loyihaning **4-bosqichi** 2023-yilning fevral-may oylarida **1 500 nafar** ingliz tili o‘qituvchilari qatnashdi va **701 nafari** sertifikatlariga ega bo‘ldi.

*Ingliz tilida so‘zlashuvchi millat – “Bugun O‘qit” dasturi loyihasi*

**2023-yil 24-maydan 7-iyungacha** qadar O‘zbekistondagi Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashlari hamda A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti hamkorligida “Ingliz tilida so‘zlashuvchi millat: Umumta’lim maktab o‘qituvchilarini tayyorlash dasturi va Murabbiylar dasturi” doirasida “Bugun o‘qit” (Teach Today) nomli pedagoglarga yangi zamonaviy o‘qitish metodikalarini o‘rgatishga xizmat qiluvchi onlayn malaka oshirish kurslarini tayyorlash bo‘yicha suratga olish ishlari bo‘lib o‘tdi. Mazkur kurslar 2023-yil aprel oyidan may oyiga qadar **5 ta** umumta’lim va **1 ta** ixtisoslashtirilgan maktablarda **23 nafar** ingliz tili o‘qituvchilari ishtirokida suratga olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Ilg‘or xorijiy tajriba asosida ta’lim sifatini oshirish” PF-134-sonli Farmoniga muvofiq Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashlari bilan hamkorlikda Xalq ta’limi tizimidagi pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarini tashkil etish bo‘yicha “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish – 2023” loyihasi doirasida onlinedu.uz maxsus elektron platformasiga institutning AKT bo‘limi bilan hamkorlikda “Bugun o‘qit” (Teach Today) ingliz tili o‘qituvchilarini malakasini oshirish maqsadida kurslari tasvirga olindi va platformaga joylashtirish ishlari tez orada amalga oshirilishi belgilangan.

### ***XIX. Xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatish***

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti xodimlarining xorijdagi yetakchi ilmiy markazlarda malakasini oshirish reja-grafigiga muvofiq **Germaniya o‘qituvchilar uyushmasi** bilan “Ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirish muammolari” yo‘nalishi bo‘yicha o‘zaro hamkorlik o‘rnatish hamda 2023-yilda bir nafar institut xodimini mazkur tashkilotga stajirovkaga yuborish bo‘yicha xat chiqarilgan (2023-yil 14-mart 04/09-36-sonli xat).

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti xodimlarining xorijdagi yetakchi ilmiy markazlarda malakasini oshirish reja grafigida 2023-yilda **Belarus Respublikasi Ta’lim vazirligining “Diplomdan keyingi ta’lim akademiyasi”** bilan hamkorlik olib borish maqsadida ikki tomonlama xat almashinilib, tez orada memorandum imzolashga kelishildi (2023-yil 31-may 04/09-231-sonli xat).

**2023-yil 5-iyun** kuni Institut rahbariyati Rossiya ta’lim akademiyasi (RAO) Prezidenti **Olga Yurievna Vasilyeva** bilan onlayn formatda uchrashdi.

Uchrashuvda tomonlar hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishga, pedagoglarga yangi metodikalarni o‘rgatuvchi rus tilidagi malaka oshirish materiallarini o‘zaro almashishga, kelgusida hamkorlikda konkurslar tashkil etishga va institut xodimlarini Rossiya ta’lim akademiyasiga qisqa muddatli stajirovkalarga yuborishga kelishib olishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2022-yil 11-avgustdagi 10/29488-sonli xatiga asosan 2023-yil 26-mayida **Germaniyaning katta yoshli mutaxassislar xizmatlari tashkiloti** bilan hamkorlikda Inklyuziv ta’lim bo‘yicha mutaxassis Ingeborg Chyla hamda Buxoro va Farg‘ona viloyatlari Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish markazlari rahbarlari o‘rtasida onlayn formatda uchrashuv tashkil etishda faol ishtirok etildi. Unda asosan Inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalalari hamda ushbu mutaxassisni 2023-2024-o‘quv yilining sentabr oyida jalb qilish rejalashtirildi.

**2023-yil 25-aprel** kuni AQSHning Tinchlik korpusi (Peace Corps) vakillari Alexander Gonta va Doud Warnecke Farg‘ona shahriga tashrif buyurishdi va

shahar markazidagi 2-, 3- (fransuz tiliga ixtisoslashgan) va 9-sonli umumta'lim maktablari faoliyati bilan yaqindan tanishishdi.

**2023-yil 26-aprel** kuni AQSHning Tinchlik korpusi "Rease Corps" vakillari Teo Neparidze, Nick Hake va Nicole Ruhly Namangan shahrida joylashgan 57-sonli umumta'lim maktabiga tashrif buyirdi hamda maktabdagi ish jarayoni, jumladan, kutubxona, sport zal, faollar zali va kompyuter sinfxonalari faoliyati bilan tanishib, maktab ingliz tili o'quvchilari bilan o'tkazilgan suhbat davomida AQSH Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamkorligida amalga oshirilayotgan "O'zbekiston Barkamollik uchun Ta'lim dasturi" doirasida Cambridge nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan 1-11-sinf Ingliz tili darsliklaridan foydalanish, Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashlari (American Councils) va O'zbekistondagi Britaniya Kengashi (British Council) tomonidan ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan loyihalari to'g'risida o'zaro fikr almashildi.

**2023-yil 4-may** kuni AQSHning Tinchlik korpusi (Peace Corps) vakillari Mark Vander Vort (Tinchlik korpusining Yevropa, O'rta yer dengizi va Osiyo mintaqasi bo'limi boshlig'i), Nick Hake (Tinchlik korpusining Yevropa, O'rta yer dengizi va Osiyo mintaqasi bo'limining ma'muriy nazoratchisi) va Teo Neparidze (Tinchlik korpusining ta'lim bo'yicha mutaxassisi) hamda institut rahbariyati o'rtasida Tinchlik korpusi tashkilotini O'zbekistonda qayta ochish taklifi doirasida tashkil etildi va Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga, jumladan, malaka oshirish tizimidagi o'zgarishlar, o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlari va xorijiy donor institutlar bilan olib borilayotgan loyihalarga qaratildi.

**2023-yil 12-may** kuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Ta'lim bo'yicha global hamkorlik (GPE), Islom Taraqqiyot Banki o'rtasida tashkil etilayotgan loyiha doirasida A.Avloniy milliy-tadqiqot institutida tashkil etilgan uchrashuv avvalida Islom Taraqqiyot Banki xodimlariga amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan yutuqlar tanishtirildi. Ta'lim bo'yicha global hamkorlik (GPE), Islom Taraqqiyot Banki tomonidan moliyalashtiriladigan loyihaning bir qismi o'qituvchilarning malakasini oshirish borasida yaratilayotgan loyihaning konseptual asoslarini yaratish bo'yicha o'zaro fikrlar almashildi.

## ***XX. Ommaviy axborot vositalarida olib borilayotgan ishlarning yoritib borilishi***

2023-yil yanvar-iyun oylarida jami **29 marotaba** Institut faoliyatiga doir ma'lumotlar O'zbekiston teleradiokompaniyasining telekanallari va ijtimoiy saytlarda yangiliklar, axborotlar va intervyular yoritildi.



Institutning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida **jami 299 ta** postlar, jumladan, **57 ta** video rolik va **242 ta** matn hamda rasm ko‘rinishda joylashtirildi.

Institutning <https://t.me/avloniyuz> rasmiy telegram kanalida obunachilar soni **85 866 nafar** bo‘lib, kanaldagi statistika ma‘lumotiga ko‘ra, bitta postning bir kunlik o‘rtacha ko‘rishlar soni **41 766 ta** va ma‘lumotlar foydalilik ko‘rsatkichi **53,4%** tashkil etdi. Telegram kanaldagi postlar **4 758 marotaba 500 ta** kanallarda ulashildi.

Rasmiy-veb saytning **“Ochiq ma‘lumotlar”** ruknida ijtimoiy ahamiyatga ega ma‘lumotlar **6 oy** davomida har chorakda **2 marotaba** yangilandi.

#### *Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishi*

**Institutning “AKT va texnik ta‘minot” bo‘limi** tomonidan yanvar-iyun oylarida “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish – 2022” loyihasi doirasida **onlinedu.uz** maxsus elektron platformasiga “O‘zini-o‘zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari”, “AKT va media savodxonlik”, “Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘limning mohiyati” “Pedagog mas‘uliyati va moslashuvchanligi” “Pedagogning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish” AKT va media savodxonlik (rus), Inklyuziv ta‘limni joriy etish masalalari (rus), Pedagogning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish (rus), Amaliyotchi psixolog, Tarix, Biologiya, Informatika va axborot texnologiyalari, Tojik tili va adabiyoti, Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar BDO‘, Davlat va huquq asoslari, Fizika, Kimyo, Rus tili va adabiyot, Ingliz tili, Tasviriy san‘at va chizmachilik, Geografiya, Musiqa, Tarbiya, Matematika, Boshlang‘ich ta‘lim, Fransuz tili, Texnologiya, Rus tili va adabiyoti (O‘zbek va qardosh tillar) fanlaridan **1000 ta video, 1000 ta taqdimot, 1000 ta ma‘ruza matni, 7000 dan ortiq test savollari** platformaga joylashtirildi.

**ARGOS test sinovlarini** o‘tkazish bo‘yicha institutning tegishli 404 hamda 405-xonalari kompyuter va internet xizmatlari bilan uzluksiz ta‘minlanib kelinmoqda.

Ilg‘or metodikalarga asoslangan sayyor o‘quv mashg‘ulotlari va seminar-trening o‘quv-mavzulari asosida diagnostika o‘tish bo‘yicha (nazorat topshiriqlar testi) **masofa.uz** MOODLE platformasida kirish-chiqish testlari o‘tkazildi va **53 ta** nazorat testi joylashtirilib, **106443 nafar** tinglovchiga login-parol qilindi va test jarayonlari nazoratga olindi.

**Tasviriy san‘at va chizmachilik fanini o‘qitish uchun huquq berish bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi** bo‘yicha **10 ta** oraliq nazorat **1 ta** yakuniy nazorat tashkil etildi (**200 ta test** yuklandi, **24 nafar** tinglovchiga login-parol qilib berilib nazoratga olindi).

**Musiqqa faninini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash** kursi bo'yicha **8 ta** oraliq nazorat **1 ta** yakuniy nazorat tashkil etildi (**160 ta test** yuklandi, shuningdek, **26** nafar tinglovchiga login-parol qilib berilib nazoratga olindi).

### ***XXI. Nashr ishlari***

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida institut **tayanch doktorantlari, stajor-tadqiqotchilari** va **mustaqil izlanuvchilarning 3 ta** metodik qo'llanmasi, **42 ta** maqolasi (shundan, OAK e'tirof etgan xorijiy jurnallarida **9 ta**, OAK tavsiya etgan mahalliy jurnallarida **17 ta**, shuningdek, xorijiy jurnallarda **4 ta** hamda mahalliy ilmiy jurnallarda **12 ta**), **40 ta** tezis (**22 ta** xalqaro va **18 ta** respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida) chop etildi.

Institut tarkibidagi **ilmiy-tadqiqot bo'limlari xodimlari** tomonidan **6 oy** mobaynida **2 ta** xalqaro jurnallarda, **22 ta** OAK e'tirof etgan jurnallarida, shundan **12 ta** xorijiy va **10 ta** respublika jurnallarida, **11 ta** respublika ro'znomalarida maqolalar nashr qilindi.

Ilmiy amaliy konferensiyalarda jami **18 ta**, shundan **8 ta** mahalliy va **10 ta** xorijiy anjumanlarda tezislar bilan ishtirok etildi. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari jarayonida ishlab chiqilgan jami **5 ta** shundan **1 ta** o'quv va **4 ta** metodik qo'llanmalar chop ettirildi.

### ***XXII. Moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari to'grisida***

Institutga **2023-yilning 6 oyi davomida** qilinadigan xarajatlar uchun budjet mablag'lari hisobidan jami **6 673 653 000** (olti milliard olti yuz etmish uch million olti yuz ellik uch ming) so'm ajratilgan, shundan **4 834 271 841** (to'rt milliard sakkiz yuz o'ttiz to'rt million ikki yuz etmish bir ming sakkiz yuz qirq bir) so'm mablag' o'zlashtirilgan. **Jumladan,**

-1-guruh xarajatlari - ish haqi uchun jami **3 066 593 000** (uch milliard oltmish olti million besh yuz to'qson uch ming) so'm ajratilgan bo'lib, **jami 2 616 554 792** (ikki milliard olti yuz o'n olti million besh yuz ellik to'rt ming etti yuz to'qson ikki) so'mi o'zlashtirilgan;

-2-guruh xarajatlari – ish haqiga ajratmalar uchun jami **821 078 000** (sakkiz yuz yigirma bir million etmish sakkiz ming) so'm ajratilgan bo'lib, **jami 654 138 705** (olti yuz ellik to'rt million bir yuz o'ttiz sakkiz ming etti yuz besh) so'mi o'zlashtirilgan

-4-guruh xarajatlari - boshqa xarajatlar uchun jami **1 877 305 000** (bir milliard sakkiz yuz etmish etti million uch yuz besh ming) so'm mablag' ajratilgan

bo'lib, shundan jami **758 629 989** (etti yuz ellik sakkiz million olti yuz yigirma to'qqiz ming to'qqiz yuz sakson to'qqiz) so'mi, shu jumladan:

- kommunal xizmatlari uchun **569 228 273** (besh yuz oltmish to'qqiz million ikki yuz yigirma sakkiz ming ikki yuz etmish uch) so'm;

- Qog'oz va idora ashyolari xarid qilish uchun **5 954 800** (besh million to'qqiz yuz ellik to'rt ming sakkiz yuz) so'm;

- Yoqilg'i xaridi uchun **13 755 375** (o'n uch million etti yuz ellik besh ming uch yuz etmish besh) so'm;


- Telefon va internet xizmatlari uchun **14 151 748** (o'n to'rt million bir yuz ellik bir ming etti yuz qirq sakkiz) so'm;

- boshqa tovar va xizmatlar uchun **155 539 793** (bir yuz ellik besh million besh yuz o'ttiz to'qqiz ming etti yuz to'qson uch) so'm o'zlashtirildi.

A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti xodimlari tomonidan 2023-yil uchun tasdiqlangan Ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlar davom ettirilmoqda.

Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlar belgilangan muddatlarda to'laqonli va sifatli tarzda taqdim etilishi ta'minlanadi.

Monitoring bo'limi boshlig'i



B.Umarov

**KELISHILDI:**

**Pedagogika markazlari faoliyatini  
muvofiqlashtirish bo'yicha prorektor**



**A.Baxramov**

**KELISHILDI:**

Ilmiy kotib \_\_\_\_\_ N.Mamanazarova  
Boshlang'ich ta'lim mazmuni va metodikalar  
ilmiy-tadqiqot bo'limi mudiri  
\_\_\_\_\_ M.Badalova  
Umumiy o'rta ta'lim mazmuni va metodikalar  
ilmiy-tadqiqot bo'limi mudiri  
\_\_\_\_\_ X.Botirov  
Kasb-hunarga yo'naltirish metodologiyasi ilmiy-  
tadqiqot bo'limi  
\_\_\_\_\_ J.Sayitmurodov  
Ta'lim menejmenti va statistikasi ilmiy-tadqiqot  
bo'limi mudiri  
\_\_\_\_\_ A.Ibragimov  
Raqamli ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish  
ilmiy-tadqiqot bo'limi  
mudiri \_\_\_\_\_ E.Alkarov  
Ta'lim sifatini baholash ilmiy-tadqiqot bo'limi  
\_\_\_\_\_ N.Tashtemirova  
Doktorantura va magistratura bo'limi  
\_\_\_\_\_ F.Abdullaev  
Kadrlar bo'limi boshlig'i  
\_\_\_\_\_ B.G'uzorov  
Hududlar bilan ishlash bo'limi  
\_\_\_\_\_ D.Mamatqulov  
AKT va texnik ta'minot bo'limi boshlig'i  
\_\_\_\_\_ A.Boyoqulov  
Menejerlik ko'nikmalarini baholash va  
sertifikatlash markazi direktori v.v.b  
\_\_\_\_\_ M.Xalimov.  
O'quv jarayonini tashkil etish bo'limi  
boshlig'i \_\_\_\_\_ I.Mexmonov  
Uzluksiz kasbiy ta'lim kafedrası mudiri  
\_\_\_\_\_ M.Ergasheva  
Ilmiy va pedagogik xizmatlar markazi  
direktori \_\_\_\_\_ Z.Shamsieva  
Xalqaro bo'lim \_\_\_\_\_ Sh.Mardonov  
Umumiy bo'lim va arxiv boshlig'i  
\_\_\_\_\_ O.Qobilov  
Matbuot kotibi  
\_\_\_\_\_ M.Djumaniyazova  
Buxgalteriya hisob va marketing bo'limi  
boshlig'i \_\_\_\_\_ J.Karimov